

XORIJIY TILLARNI O'RGANISHDA TAQQOSLASH METODINING AFZALLIKLARI

Farangiz Abdurahmonova

*Termiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi
fakulteti talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada chet tillarini o'rganishni osonlashtiradigan – qiyoslash usuli, xorijiy tillarni o'zlashtirishning eng nozik nuqtalari xususida so'z boradi. Binobarin, hozirgi kunda o'rganilish talabi yuqori bo'lgan ingliz hamda fors tillarining mushtarak hamda ayricha jihatlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ingliz tili, fors tili, taqqoslash metodi, grammatika, gap qurilishi.

Bugungi axborotlashgan olamimizda ham hatto til o'rganishga talab yo'qolmagan, ya'ni hali ham til biladigan insonlar el orasida qadrlil hamda hurmatga sazovordir. "Til bilgan el biladi"- deya bejiz aytmagan donish xalqimiz ham. Shu bois bo'lsa kerak, yoshlar o'rtasida til o'rganishga qiziqish, til bilish sertifikatlarini qo'lga kiritish yildan yilga jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Jumladan, IELTS, CEFR, TOEFL, MULTILEVEL kabi sertifikatlarning ishga kirish uchun, oliy o'quv yurtlariga qabul uchun kerak bo'layotgani fikrimizning yorqin dalilidir. Shuni unutmaslik kerakki, til o'rganish oson jarayon emas, ayniqsa, bir nechta tilni o'zlashtirish uchun anchayin mashaqqat chekish zarur. Biroq ba'zi metodlar, pedagogik usullar bu jarayonni osonlashtirishga yordam beradi. Bulardan biri – taqqoslash metodi. Taqqoslash metodi ta'lim tizimlaridagi umumiylik va o'ziga xoslikni, nazariya va qonuniyatlarning universal va spesifik jihatlari ajratishga ko'maklashadi. Til o'rganishda ham ushbu metod juda muvofiq keladi, shuning uchun ham jahon tili, butun dunyoda "oliy til" bo'lishga intilayotgan ingliz hamda mumtoz adabiyotning asosi bo'lgan, o'lmas asarlar, durdona g'azallar-u ruboiylar bitilgan fors tilini taqqoslash metodi yordamida bir-biriga solishtiramiz, o'xshash va farqli tomonlarini keltirib o'tamiz.

Avvalambor, har bir tilning negizi uning fonetikasida namoyon bo'ladi. Ushbu jihatdan fors va ingliz tillari bir-biriga mutanosibdir. Ingliz tilida ham, fors tilida ham tovushlarning o'z nomi boshqa, lekin o'qilishi boshqa, shu jihatidan bu tillaro'zbek tiliga qarama-qarshidir. Misol uchun, o'zbek tilida "a" yoxud "f" tovushlarining nomlanishi ham o'qilishi ham bir xil. Ammo ingliz va fors tilida unaqa emas. Misol uchun, fors tilida:

l – ushbu tovushning nomlanishi "alif", o'qilishi esa o'zbek tilidagi "a" tovushikabidir.

ف – bu tovushning nomlanishi “fa”, o’qilishi bo’lsa o’zbek tilidagi “f” tovushisigari.
د – bu tovushning nomlanishi esa “dol”, o’qilishi o’zbekcha “d” kabidir. Xuddi shunday ingliz tilida ham tovushlar nomlanganidan farqli o’qiladi.

U – bu tovushning nomlanishi “yu” – [ju:], ba’zi so’zlarda “a” ga yaqin o’qiladi, misol uchun, *gun* – [gʌn] miltiq, *cup* – [kʌp] finjon.

J – bu tovushning nomi “jey” – [dʒei], talaffuzi o’zbek tilidagi “j” tovushi singari. Masalan, *jam* – [dʒæm] murabbo.

K – nomi “key” – [kei] o’zbekcha “k” singari talaffuz qilinadi. *Kitten* – [ˈkɪtən] mushukcha, mushuk bolasi.

Chunonchi, fors va ingliz fonetikasida o’xshash tomonlar bo’lganidek, nomutanosib holatlar ham kuzatiladi. Misol uchun, fors tilida ham tovushlar boshqa barcha tillar kabi unli va undosh tovushlarga bo’linishidan tashqari, diftonglar deb ataluvchi 2 ta tovushga ega. Bular: **ey** va **o’u**. Bu tovushlarning o’zbek tilidagi ekvivalenti mavjud emas. Bu tovushlar talaffuz qilinganda ularni ayirib emas, birgalikda qo’shib bir bo’g’inda talaffuz etish lozim. Diftonglarda birinchi tovush ikkinchisiga nisbatan kuchliroq aytiladi.

1. **ey** diftongi – o’zbek tilidagi buyruq-xitob undovi *ey* so’zi yoxud inglizcha *may* (mumkin- modal so’z), *day* (kun) so’zlaridagi tovushga yaqin. **مەیل** (meyl) – mayl, xohish **اېۋان** (eyvon)- ayvon **حەيۋان** (heyvon) – hayvon **مەيمون**

(meymun)- maymun

2. **o’u** diftongi – bu tovushni inglizcha *now* (hozir) so’zining talaffuziga qiyoslab o’rganish mumkin.

نۇ (no’u)- yangi **نوبەت** (no’u)- navbat

دولت (do’ulat)-davlat **توليد** (to’ulid)- ishlab chiqarish

Bundan tashqari, faqat fonetikasida emas, balki grammatikasida ham mushtarak jihatlarni uchratishimiz mumkin. Ayniqsa, fe’l so’z turkumi, chunonchi, fe’l zamonlarida talaygina o’xshashliklar mavjud. Ingliz tilida hozirgi zamon ot kesimideb ataluvchi “to be” fe’li fors tilidagi bog’lamalar bilan bir xil.

Ingliz tili va fors tilidagi kishilik olmoshlari:

Shaxslar	Birlik مفرد (mo’frad)[fors] Singular [eng]	Ko’plik جمع (jam’) [fors] Plural [eng]
I shaxs	Men – من (man), I	Biz – ما (mo), We
II shaxs	Sen – تو (to’), You	Siz – شما (sho’mo), You
III shaxs	U – او (u), He (o’g’il bolalar uchun), she (qizlar uchun)	Ular – اۇلار (onho), They

Ingliz tilida “to be” fe’li 3ta: *am, is, are*. Ular o’zbek tiliga –man, -san, -dir kabi kesimlik shakllari, ya’nikim bog’lamalar sifatida tarjima qilinadi. Xuddi shuningdek, fors tilida ham *ast* است bog’lamasi mavjud va uning asosiy vazifasi – ot kesimli soda gapni hosil qilishdir.

This apple is delicious. (*Ʒis 'æpʌl ɪz dɪ 'lɪʃəs*)

ان سيب شيرين است (*In sib shirin ast*) *Bu olma shirin(dir)*.

Bog’lamalarning ingliz tilida ham, fors tilida ham o’ziga xos xususiyatlari borki, ular bu ikki tilda ham nisbatan juda o’xshash. Jumladan, ingliz tilida “to be” fe’li shaxslarda tuslanadi. *Am – I; are – you, we, they; is – he, she, it* uchun qo’llanadi. Fors tilida ham *ast* bo’g’lamasi gap hosil qilish uchun turli shaxslarda tuslanadi. Avvalambor, bu bog’lamani tuslash uchun uning ekvivalenti bo’lgan *hast* هست niqo’llaymiz hamda unga shaxs-son shakllarini qo’shib gap hosil qilamiz.

Shaxslar	Birlik	Ko’plik
I shaxs	-am ام	-i ىم
II shaxs	-i يى	-id يد
III shaxs	--	-and ند

I am a student of the first course. (*aɪ æm ðə 'stju:dənt vɒ ðə fɜ:st kɔ:s*)

من دانشجوي سال اول هستم. (*Man doneshjuye sole avval hastam*) *Men 1-kurs talabasiman.*

Chunonchi, kesimlik shakllaridan tashqari fe’l zamonlari mavzusida ham bir talay mutanosibliklarni ko’rishimiz mumkin. Misol uchun, ham ingliz tilida, ham fors tilida zamonlar faqat uch vaqtni, ya’ni o’zbek tilidagidek, 3 zamoni: o’tgan, hozirgi, kelasi zamonlarni ifodalab qolmasdan, zamonlar intervalidagi (oralig’idagi) zamonlarni ham bildiradi. Ingliz tilida o’tgan davom zamon *past continuous*, fors tilida ماضى استمرارى deb ataladigan zamon mavjud, biroq o’zbek tilida yo’q. Bu zamon ish-harakatning o’tgan zamonda boshlanib, tugallanmaganligini yoki takroriy ravishda bajarib kelinganligini ifodalaydi. Ingliz tilida bu zamoni hosil qilish uchun: *SUBJECT+WAS/WERE+VERB+ING* formulasidan foydalanamiz. Subject – ega, was/were esa am/is/are

bog’lamalarining o’tgan zamon shakllari. Fors tilida esa o’tgan davom zamon fe’lini hosil qilish uchun o’tgan zamon fe’l negizi oldiga *mi* مى old qo’shimchasiva fe’l oxiriga shaxs-son qo’shimchalarini qo’shish orqali yasaymiz.

You were going to the school. (*ju: wɜ: 'gəʊɪŋ tu: ðə sku:l*)

ئو مې رفتيد به دېپرسئان. (*To 'mi raftid be dabereston*) *Siz maktabga borayotgan edingiz.*

Yana bir zamon – hozirgi-kelasi zamon ham o'zbek tilida uchramaydi, aksincha, fors va ingliz tillarida ishlatiladi. Ingliz tilida *present simple* (oddiy hozirgi zamon), fors tilida esa مضارع اخبارى deb ataladigan ushbu zamon ish-harakatning umuman, doimiy bo'lib turishini bildiradi.

We do morning exercises every day. (wi: du: 'mɔ:nɪŋ 'eksəsəʊzɪz 'ɛvri dei)

ما هر روز صبح ورزش مي كنيم. (*Mo har ruz so'bhe varzesh miko'nim*). Biz har kuni ertalab badantarbiya qilamiz.

Ko'rinib turibdiki, ushbu zamonlarni hosil qilishning ham o'ziga yarasha qonun-qoidasi, qolipi bor. Ingliz tilida *SUBJECT+V(-s,-es,-ies)* grammatik qolipidan foydalanilsa, fors tilida hozirgi zamon fe'l negizi oldiga *mi* مي old qo'shimchasiva fe'l oxiriga shaxs-son qo'shimchalari qo'shish orqali yasaladi.

Faqatgina fe'l zamonlarida emas, balki boshqa grammatik mavzularda ham bu ikkitil juda o'xshash. Masalan, fors tili va ingliz tilida kelishik shakllari mavjud emas. Bilamizki, o'zbek tilida 6ta kelishik mavjud hamda ular gapda so'zlarning o'zaro sintaktik munosabatga kirishishida ko'maklashadi. Fors va ingliz tillarida esa bu vazifani asosan predloglar, ko'makchilar, fors tilida ba'zan izofalar bajaradi. Bu grammatik vositalar tom ma'noda kelishik bo'lmasa-da kelishikka o'xshaydi va u bilan bir xil vazifani bajaradi.

O'zbek tilida –ga jo'nalish kelishigi rolini fors tilida *be* به , ingliz tilida bo'lsa *to* predlogi o'ynaydi. Ularning asosiy ma'nolari harakatning yo'nalish o'rni, harakat yo'nalgan shaxs ekanligi turgan gap.

Diyor went to the library. (*Diyor went tu: ðə 'laɪbrəri*)

دېيار به كىتابخانه رفت. (*Diyor be ketobxone raft*)

Diyor kutubxonaga ketdi.

Fors tilida *dar* در, ingliz tilida *in, on, at* predloglari o'zbekcha chiqish kelishigi – **da** ni ifodalaydi va ish-harakat sodir bo'lgan o'rinni, vaqtni bildiradi.

They were in the library all day yesterday. (*ðei wɜ:r ɪn ðə 'laɪbrəri ɔ:l dei 'jestədeɪ*)

دېروز انھا تمام روز در كىتابخانه بودند. (*Diruz onho tamom-e ruz dar ketobxone budam*)

Kecha ular butun kun kutubxonada edi.

Ingliz tilida *from*, fors tilida esa *az* از predlogi o'zbek tilidagi -dan chiqishkelishigini ifodalaydi.

I got the letter from my friend. (*aɪ gɒt ðə 'letə frɒm maɪ frɛnd*)

من از دوستم نامه گرفتم. (*Man az dustam nome gereftam*)

Men do'stimdan xat oldim.

Bu kabi fors va ingliz tillarining fonetik, leksik, grammatik, morfologik mushtarak jihatlarini ko'plab sanashimiz mumkin. Xulosa qiladigan bo'lsak, asosiy maqsadimiz bu ikki tilni tashbeh vositasida yoxud tazod vositasida o'rganishni osonlashtirish, ya'nikim taqqoslash metodining naqadar foydali va samarali ekanligini isbotlash edi. Xuddi shuningdek boshqa ko'plab tillarni o'rganayotganda qiyoslash orqali tez va oson o'zlashtirish mumkin. Avaz O'tar "Til" g'azalida ta'kidlaganidek: "Til – vositai robitai olamiyondur", ya'ni " Til kishilarning aloqa vositasidir". Ushbu tillarni puxta o'rganib, dunyo ko'rish, o'z mentalitetimizni, qadriyatlarimizni boshqa xalqlar bilan baham ko'rish Yangi O'zbekistonning har bir o'g'il -qizi uchun ustuvor vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Fors tili. M.Abdusamatov. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2007.
2. Fors tili. N.Murodov. Termiz davlat universiteti NMM nashriyoti. Termiz-2022.
3. Ingliz tili grammatikasi. M. G'aprov, R. Qosimova. "Azmir Nashr Print". Toshkent – 2022.
3. <https://tophonetics.com>
4. Bolalar uchun ingliz tili. V. I. Skulte."ART FLEX".Toshkent – 2012.